

TANQIDIY FIKRLASH JARAYONIGA O'RGATISH METODIKALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11393775>

Nurmatova Shoxyora Ilhomjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lif kafedra o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada, tanqidiy fikrlash haqida tushuncha, tanqidiy fikrlashning samarali tomonlari va tanqidiy fikrlash masalalarini o'rgangan olimlar, pedagoglar haqida shuningdek, talaba yoshlarga va o'quvchilarga tanqidiy fikrlashni o'rgatish va bu fikrlashning ijobiliy va salbiy tomonlari haqida keng ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar:

tanqid, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, kognitiv yo'nalish, analiz qilish, fikrlash jarayoni, pedagog yoshlar, davlat ta'lim standarti, shaxsiy rivojlanish, madaniy bilimlar, konsepsiya.

Tanqidiy fikrlash – fikrlashning alohida turi bo'lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta'riflarga ega, jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, xolis tahlil va faktlarni tekshirish. Tanqidiy fikrlash bu – o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini o'zi tarbiyalaydigan, o'zini o'zi nazorat qiladigan va o'zini o'zi to'g'irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat'iy me'yorlariga rozi bo'lish va ularni hushyorlik bilan qo'llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallahashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizm va sotsosentrizmni yengib o'tishni talab qiladi.

Tanqidiy fikrlash atamasi Xalqaro terminologiya tizimida grek. fikrlashning "tanqidiy" shakli sifatida yuritiladi. = kritikos = "tanqid", "baholash", "imtihon" va boshqalar. ko'p ma'noli so'zdan kelib chiqqan; bu yerda "tanqid" tushunchasi kundalik hayotda "ayblast" ma'nosini anglatmaydi, balki aqliy qobiliyat ma'nosini bildiradi va "baholash", "aniqlash", "hukm qilish", "ajratish qobiliyati" kabi ma'nolarga ega. Tanqidiy fikrlashning intellektual asoslari, shuningdek, etimologiyasi ham juda qadim zamonlarga borib taqaladi, ya'ni bundan 2500 yil avval Suqratning o'qitish amaliyoti va fikrlarida bu tushunchaga yaqin mazmunni uchratish mumkin; Suqrat savollarni tekshirishning yangi usulini ixtiro qildi, bu

odamlarning bilimga bo'lgan ishonchini oqilona aniqlashga qodir emasligining zaifligini ko'rsatdi va bunda Sokratik kinoya ham bor edi.

Tanqidiy fikrlash bilan bog'liq eng qadimgi yozuvlar Platon tomonidan yozilgan Suqrot ta'limotini taqdim etgan dialoglardir. Ular Platonning birinchi dialoglari bo'lib, Suqrot bir yoki bir nechta suhabatdoshlari bilan axloqiy masalalar, masalan, Suqrotning qamoqdan qochishi to'g'ri bo'ladimi, degan mavzuda gaplashadi. Faylasuf bu masalani o'ylab, mulohaza yuritadi va shunday xulosaga keladi: qochish uning ustida tutgan barcha narsalarni (qadriyatlarni) buzadi, masalan, Afina qonunlari va Suqrot tinglayman, degan ichki rahbar ovoz. Suqrot tanqidiy haqiqatni aniqlab berdiki, inson bilim va aqlga "hokimiyat" (obro') asosida bog'liq bo'lmaydi. U hokimiyat va yuqori lavozim egalari juda sarosimali va mantiqsiz bo'lishi mumkinligini isbotladi. Suqrotning fikricha, yaxshi hayot kechirish va hayotning qadriga yetish uchun inson tanqidiy savol beruvchi, "surishtiruvchi ruh"ga ega bo'lishi kerak. U g'oyalarni e'tiqodga loyiq deb qabul qilishdan oldin, uni chuqur o'ylashga undaydigan chuqur savollar berish kerakligini anglatdi.

Suqrot "dalil izlash, hukm va taxminlarni sinchiklab tekshirish, asosiy tushunchalarni tahlil qilish, nafaqat aytilgan, balki amalga oshirilayotgan ishning mohiyatiga ham kirib borish" muhimligini belgilab berdi. Uning so'roq qilish usuli hozirda „Suqrotcha so'roq“ deb nomlanadi va tanqidiy fikrlashni o'rgatishning mashhur strategiyasi hisoblanadi. O'zining so'rov uslubida Suqrot fikrning ravshanligi va mantiqiy izchillikni ta'kidladi. U odamlarga mantiqsiz fikrlashni fosh qilish yoki ishonchli bilim etishmasligini ko'rsatish uchun savollar berdi. Suqrotning ta'kidlashicha, hokimiyatga ega bo'lish hech qanday haqiqiy bilimni bera olmaydi. U taxminlarni sinchkovlik bilan tekshirib chiqdi va dalillar va asosli mulohazalarga asoslangan ishonchlilikka shubha qilish usulini yaratdi. Platon Sokrat ta'limotini yozib qoldirdi va tanqidiy fikrlash an'anasini davom ettirdi. Arastu va undan keyingi yunon skeptiklari Sokrat ta'limotini mukammallashtirib, tizimli tafakkur va savol-javob orqali voqelikning tashqi ko'rinishini emas, balki asl mohiyatini aniqlashga muvaffaq bo'ldilar.

Suqrot tanqidiy fikrlash an'ana ni uchun kun tartibini belgilab beradi, ya'ni umumiy e'tiqod va taxminlarni aks ettirish va oqilona va mantiqiy e'tiqodlarni izchil dalillar yoki mantiqiy asosga ega bo'lmagan e'tiqodlardan ajratish-ular bizning tabiiy egosentrizmimizga murojaat qiladimi yoki bizning manfaatimizga mos keladimi. Ular qanchalik mos bo'lishidan qat'i nazar, qanchalik qulay va qulay bo'lishidan qat'i nazar, ularni diqqat bilan ajratib ko'rsatish kerak.

An'anaga ko'ra, tanqidiy fikrlashning turli xil ta'riflari mavjud:

• “Javob yoki xulosaga kelish uchun axborotni faol, mohirona shakllantirish, qo’llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash jarayoni”.

• “Aniq, oqilona, ochiq fikrli va asosli intizomli fikrlash”.

• “Maqsadli, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi xulosa, sharhlash, tahlil qilish, baholash va xulosa qilish, shuningdek, ushbu xulosaga asos bo‘lgan dalillar, kontseptual, uslubiy, mezon yoki kontekstual tushunchalarni tushuntirish”.

• “E’tiqodimizni shakllantirishda aqldan foydalanish talab etiladi”.

• tartibga solish va aniqlashtirish, samaradorlikni oshirish, fikrlashdagi xatolar va noto‘g‘rilikni tan olish kabi narsalar orqali o‘z fikrlash haqida o‘ylash. Tanqidiy fikrlash “qattiq fikrlash” emas va u muammolarni hal qilishga (o‘z tafakkurini “takomillashtirish” dan tashqari) yo‘naltirilmaydi. Tanqidiy fikrlash ichki yo‘naltirilgan bo‘lib, fikrlovchining ratsionalligini maksimal darajada oshirishga qaratilgan. Inson tanqidiy fikrlash yordamida muammolarni hal qilmaydi, tanqidiy fikrlash yordamida o‘z fikrlash jarayonini yaxshilaydi.

• “Ehtiyyotkorlik bilan tahliliy aniqlashga asoslangan baholash”.

“Taqnidiy fikrlash – bu odamlardan fikr yuritishni va ularning e’tiqodlari va harakatlarini boshqaradigan qarorlar qabul qilishga e’tibor berishni talab qiladigan fikrlash usuli. Tanqidiy fikrlash odamni mantiqiy xulosalar chiqarishga, murakkab ma’lumotlarni qayta ishlashga, narsalarga turli tomonlardan qarashga o’rgatadi, shuning uchun ular ishonchliroq xulosalar chiqarishi mumkin”.

Tanqidiy fikrlashning yettila tanqidiy xususiyati mavjud: izlanuvchan va ishtiyoqli, har xillarga ochiq, tizimli fikrlashga qodir, analistik, haqiqatda qat’iyatli, tanqidiy fikrlashda ishonchli va keyin yetuk.

Tanqidiy fikrlash bir necha yo‘llar bilan belgilanishi mumkin bo‘lsa-da, uning asosiy tarkibiy qismi – qoniqarli natijaga erishish uchun kuchli intilish haqida umumiyl fikr mavjud, bunga oqilona fikrlash va natijaga asoslangan yondashuv orqali erishish kerak.

Tanqid-(lot) -hukm qilish mahorat -inson faoliyatining biror sohasiga aloqador hodisani baholash, analiz qilish. U xatolarni topish va muhokama qilishdan iboratdir. Tanqid-nimadadir, yoki kimningdir kamchiliklarni baholash nima yoki kimdir haqida salbiy fikr yuritish ham hisoblanadi. Bu fikrlash jarayonida narsa va hodisalarni analiz qilib, asosli xulosalar chiqarish nmaqsadidagi mulohazalar sistemasi bo‘lib u tanqidiy baholash xarekteriga ham ega. Ya’ni u tanqidga aylangan analistik fikrdir. Tanqidiy fikrlash haqida juda ko‘p ta’riflar berilgan jumladan, bu fikrlashning alohida turi bo‘lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Ya’ni, o‘z-o‘zini boshqaradigan, o‘zini o‘zi tarbiyalaydigan, o‘zini o‘zi nazorat qiladigan va

o'zini o'zi to'g'irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat'iy me'yorlariga rozi bo'lish va ularni qo'llashdir. Hozirgi kunda yurtimiz rivojlanishida Sharqda tarbiya mazmunini o'zida mujassam etgan ta'lif muassasasidagi o'quvchi - yoshlarni o'rta asr buyuk mutafakkirlari Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sinolar ta'kidlaganlaridek, mustaqil tanqidiy fikrlashga o'rgatish hamda ushbu tanqidiy fikrlashni jarayonida o'zlashtirilgan bilimlar biror bir manbadan tayyor holda olingan bilimlar bilan qiyoslanganda katta afzalikka ega ekanligini uqtirish bugungi globallashuv jarayonida o'rni muhum sanaladi. Ayniqsa, to'liqroq va tezroq rivojlangan bu bilimlar o'quvchilar e'tiqodiga aylanadi va ularning tafakkuri hamda faol amaliy tanqidiy fikrlashi quroli hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash masalalarini tadqiq etish bilan ko'plab zamonaviy olimlar, pedagoglar, psixologlar va metodislar shug'ullangan. Xususan, V.V. Davidov, M. G. Davlateshin, I. Y. Lerner, M. I. Mahmudov, S. Rajabov ishlarida tanqidiy fikrlashning tuziishlari, aqliy faoliyatning umumlashgan usullari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Shu o'rinda Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning quyidagi gaplari yodimizga tushadi: "Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'sib kelayotgan o'quvchi-yoshlarimizda ham davlatimiz rahbari aytganlaridek, taqidiy-tahlil haqida ularga yoshligidan ma'lumotlar berilishi kerak. Tanqidiy fikrlash talabalarga axbarotlarni qayta ishslash, tartibga solish, o'z fikrlarini tez va aniq ifodalish imkonini beradi. Shuningdek, mustaqil ravishda o'z bilimlarini jalb qilish va boshqalar bilan konstrukiv munosabatda bo'lish qobiliyatini rivojlantiradi. Tanqidiy fikrlash axbarot bilan samarali ishslash imkonini beradi, demak, avvalo u bilan ishslashni o'rganish muhim. Axbarot makonining kengaygan zamonaviy davrida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Shunday qilib, tanqidiy fikrlash texnologiyasi Davlat Ta'lif Standartiga muvofiq zamonaviy ta'lif maqsadlariga javob beradi:-o'quvchilarning umumiyligi, madaniy shaxsiy va kognitiv rivojlanishi, bu talimning asosini ta'minlaydi. -"o'rganishga o'rgatish" va amaliy amalga oshirilishini ta'minlaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi mustaqil qarorlar qabul qilish va mavzuni o'rganishda yo'nalish tanlashga qaratilgan. O'quvchi yoshlar tanqidiy fikrlashni o'rganishda zamonaviy didaktika o'qish jarayonida o'quvchilar psixik tanqidiy fikrlashi bilan shug'ullanuvchi ta'lif psixologiyasi yutuqlaridan foydalanadi. Tanqidiy fikrlashning o'rganish g'oya va tajribalarning turli-tumanliligini pedagoglar tushungan va qadrlagan

vaqtadagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash, "yakka-yu yagona to'g'ri javob" ni qabul qiladigan, jarayonida yuz bermaydi. Bu fikralashni rivojlantirish oson ish emas. Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Bular:-tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun vaqt va imkoniyat berish;-o'quvchi-yoshlarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;-yoshlarning o'quv jaroyinadagini faolligini ta'minlash;-har bir o'quvchi-yoshlarning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligigao'zlarida ishonch hissini uyg'otish;hisoblanadi. O'z tanqidiy fikrlashlarini maqsadga qaratish va motivlashtirish qobiliyatiga ega bo'lish, o'z istak-mayllarini faol boshqarishga qobillik, har bir daqiqa o'z shaxsini takomillashtirishda foydalanish uchun vaqtini qadrlash eng muhumdir.Tanqidiy fikrlashning ijobiy tomonlari bo'lganidek salbiy tomonlari ham bor. Demak, tanqidiy fikrlash maqbul yechimni topishning yaxshi usullaridan biri bo'lsada undan doimo foydalanish maqsadga muvofiq emas. Barcha qarorlarni qabul qilish uchun ham tanqidiy fikrlash zarur bo'lavermaydi. Ko'pincha tanqidiy fikrlashdan ko'ra "ijodiy fikrlash" elementlarini qo'llagan ham ma'qul. "Ijodiy fikrlash" esa muammoni yechimini topish maqsadida yangi narsani yaratish maqsadidagi fikrlashdir. Fikrlash narsalarning yaxshi tomoni va ularni yanada yaxshilashga qaratilgan bo'lmosg'i kerak. Shu nuqtayi nazardan " tanqidiy fikrlash" fikrlashning eng yaxshi usuli ham bo'lmasligi mumkun. O'quvchilarga har qanday vaziyatda ham voqeani ijodiy tomonlarini topishga o'rgatish kerak. Ular ba'zan aniq, ba'zan esa ong ostida yashirin bo'ladilar.Pedagogika fani konteksida tanqidiy fikrlash quyidagi mantiqiy qobiliyatlarni shakllantirishni nazarda tutadi:-axbarot bilan ishslash qobiliyat: axbarot sifatini tahlil qilish;-vaziyatni uning alohida daqiqalarini emas, balki butun sifatida ko'rib chiqish;

-muammoni aniqlash, uni aniq belgilash, sabab va oqibatlarini aniqlashtirish, mantiqiy xulosalar qurish;Taqnidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik texnologiyasi mualliflari semantik bosqichini amalga oshirish jarayonida asosiy vazifa talabalarning faolligini, ularning qiziqishi va yaratilgan harakat intertetsiyasini saqlab qolish ekanligini ta'kidlaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil qa'tiy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Vazirlar mahkamisining kengaytirilgan majlisdagi ma'ruzasi 2017-yil 17-yanvar.
2. SOROS xalqaro ochiq jamiyatining "Taqidiy fikrlashni rivojlanadirish asoslari" fanlararo dasturi" T.2004.
3. Nishonov A, Xaydarov B, Nuriddinov B. va boshqalar o'quv metodik qo'llanma. T., 2003 190-bet.
4. Z. F. Sharapova "Ta'lim texnologiyalari" , " Navro'z", Toshkent. 2019.